

**Yuridik shaxslar va yuridik shaxs maqomiga ega bo'limagan xususiy tadbirkorlarga telefon
aloqasi xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha**
SHARTNOMA№ 52041

Kitob tuman

2022 yil «27» yanvar

Bundan keyin "Operator" deb nomlanuvchi telekommunikatsiya operatori (vakolatli shaxs)

Kitob Telekommunikatsiya bog'lamasi

(операторнинг номланиши)

«Uzbektelekom» AK "Qashkadaryo" filiali

(litsenziya bergan tashkilotning nomi)

tomonidan berilgan litsenziya va Nizom asosida faoliyat ko'rsatuvchi

Diyorov Xusniddin Muxammadiyevich

(rahbarning mansabi, ism-familiyasi)

timsolida bir tomondan,

Yuridik shaxs,

Byudjetdan mablag oluvchi tashkilot nomi: **Kitob tuman SEO va JS bo'limi**

Manzili: Qashqadaryo vil. Kitob tuman B/Ipak yo'li ko'chasi

Rahbar, F.I.Sh. Ibatov Sayfiddin Tashmuradovich

bundan keyin "Abonent" deb nomlanuvchi ikkinchi tomondan quyidagi shartnomani shu haqda tuzdilar

1. SHARTNOMA PREDMETI

Operator telefon aloqasining universal (asosiy) va qo'shimcha xizmatlarini ko'rsatish. Abonet esa mazkur xizmatlardan foydalanish, xamda xizmatlar uchun haq to'lash majburiyatini oladi.

1.1. Abonent toifasi - byudjet

1.2. Shartnomaning tuzilgan vaktdagi umumiylilik baxosi 231000 (Ikki yuz o'ttiz bir ming) so'mni tashkil etadi.

| 2022 yil jami | 1 - chorak | | | 2 - chorak | | | 3 - chorak | | | 4 - chorak | | |
|---------------------|------------|--------|-------|------------|---|---|------------|---|---|------------|---|---|
| | yanvar | fevral | mart | - | - | - | - | - | - | - | - | - |
| 231000 | 77000 | 77000 | 77000 | - | - | - | - | - | - | - | - | - |

1.3. Byudjet tashkilotining yil davomida smeta xarajatlariga kiritiladigan uzgarishlar doirasida xizmat kursatuvchi, xizmat oluvchi va xizmat xakini tulovchilar tomonidan uzaro kelishilgan xolda shartnoma summasiga uzgartirishlar kiritishga xalqidirlar.

2. OPERATORNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

2.1. Operatorning majburiyatları:

2.1.1. Beigilangan sifat darajasida telefon aloqasi xizmatlarini o'z vaqtida ko'rsatish.

2.1.2. Ommaviy axborot vositalarida, Internet, aholi gavjum joylarda, elonlar berish yordamida korxona faoliyatı, yangi ATS larni ishga tushirish, yangi xizmat turlari, telekommunikatsiya xizmatlari uchun belgilangan tarilauning o'zgarishi va bu xizmatlarni ko'rsatish tartiblari haqida xabar berish.

2.1.3. Universal xizmatlarga tariflar o'zgarganligini kamida 15 kun oldin ommaviy axborot vositalarida elon qilish.

2.1.4. Abonentning aybisiz telefon aloqasi buzilganda abonent tomonidan tamirlash byurosiga talabnomalar ushiga vaqtidan boshlab abonent uskunasi ishlamagan kunlar uchun abonent to'lovlarini qayta hisoblab chiqish. Qayta hisob oshiriladi. Texnik sabablarga ko'ra abonent raqamining o'zgarishini kamida 10 kun oldin abonentga yozma ravishda malum qilish. O'rnatilgan tartibda mahalliy telefon so'zlashuvlari to'g'risidagi malumot-rasshifrovka (detalizatsiya) qo'shimcha to'lov evaziga Abonentga berish.

2.1.5. Abonent tomonidan sotib olingan telematik xizmatlar (telefaks, teleks, vedeoteks va hokazolar)ning oxirgi uskunalarini shartnomaga qo'shimcha kiritgan holda (8-bo'limga binoan) ro'yxatdan o'tkazish.

2.1.6. Operator, shuningdek, "Umumiylilik foydalanishdagi telekommunikatsiya tarmoqlarida telefon aloqasi xizmatlarini ko'rsatish qoidalari"da belgilab berilgan boshqa bir qator majburiyatlarga ham ega (bundan keyin matnda "Qoidalari").

2.1.7 Operetor kursatilgan xizmatlar xisob-varak fakturalarini xar oyda byudjet tashkilotiga takdim etib borish majburiyatini oladi.

2.Operatorning xukuslari:

2.2.1. Yangi telefon stansiylari ishga tushishi va telefon tarmoqlari rekonstruksiya qilinishi munosabati bilan amaldagi "Qoidalar"ga muvofiq Abonentning ruxsatisiz, ammo unga o'z vaqtida xabar bergan holda, telefon raqamini bepul o'zgartirib qo'yish.

2.2.2. Operator abonent liniyalariga tegishli sertifikati bo'Imagan uskunalar (telefon apparatlari, telematik xizmat uskunalar, axborot uzatgichlar, radiotelefonlar, radiouzaytirgich, PK, AON va boshqalar)ni o'chirtirishni operatorning texnik komissiyasi tomonidan dalolatnoma tuzilgandan so'ng Abonentdan talab qilish.

2.2.3. Quyidagi hollarda abonent uskunasini telefon tarmog'iga ulanishini to'xtatish:

- mahalliy, shaharlарaro va xalqaro telefon aloqasi uchun 4.6., 4.6.1.-bandlarga asosan aloqa xizmatlari to'lovlar to'lanmaganda (bunda telefon aloqasini uzish haqida abonent kamida 3 kun oldin telefon bilan ogohlantirilishi zarur);
- abonent tomonidan oxirgi qurilmalarini ishlatish qoidalari buzilganda va buning natijasida operator komutatsion uskunalarining normal ishlashiga xalaqit bergan hollarda;
- 3.1.7. - band buzilganda, operator texnik komissiyasining dalolatnomasi tuzilib, buzilishlar bartaraf etilgunga qadar.

Shartnomani qayta tiklash va oxirgi qurilmalarini ularash belgilangan tartibda, kamchiliklar tuzatib bo'lingandan so'ng va Abonent tomonidan mahalliy, shaharlарaro, xalqaro telefon aloqasining telekommunikatsiyalar xizmatlari uchun haq to'langandan keyin amalga oshiriladi(aloha xizmatlaridan foydalanish to'xtatib qo'yilgan muddat ham kiradi).

2.2.4. Agar Abonent hisob-kitob davridan keyin 2 oy davomida telefon aloqasi xizmatlari uchun to'lovni amalga oshirmasa yoki 3.1.7.-bandlarni buzishga yo'l qo'ysa, ushbu shartnomaga bir tomonlama bekor qilinadi.

2.2.5. Operator "Qoidalar"da belgilab berilgan boshqa bir qator huquqlarga ham ega.

3. ABONENTNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. Har chorakda kamida 1-marta Operator bilan o'zaro hisob-kitoblarni aniqlash maqsadida solishtirish dalolatnomasi tuzish.

3.2. Operator hisobidagi yoki u tomonidan ta'mirlanadigan Abonent foydalaniladigan uy telefon simlari va boshqa uskunalarini ishga yaroqli holatda saqlash. Abonentga tegishli bo'lgan yoki Abonent tomonidan ijaraga olingan telekommunikatsiya vositalarining texnik me'yorlarga muvofiq bo'lishini ta'minlash.

3.3. Aloqa buzilishlari haqida telekommunikatsiya bog'lamasining ta'mirlash byurosiga o'z vaqtida xabar berish.

3.4. Korxonaning nomi, rekvizitlari o'zgarganda, xonani ijaraga berish bo'yicha, bir oy muddat ichida yozma ravishda, sanasini ko'rsatgan holda Operatorga xabar qilish va amaldagi tariflar bo'yicha to'lovlar evaziga shartnomani qayta rasmiylashtirish yoki uni bekor qilish. Ijara muddati tugashi bilan yoki ijaraga berish bo'yicha shartnomaga bekor qilinadigan bo'lsa, telefon aloqasi xizmatini ko'rsatish bo'yicha tuzilgan shartnomaga ijaraga oluvchidan ijaraga beruvehi bepul qayta rasmiylashtirilishi mumkin. Ijaraga beruvechi ijara shartnomasini bekor qila turib, ijaraga oluvchining Operator oldidagi qarzlarini uzishini nazorat qiladi va qarzlar mavjud bo'lgan taqdirda belgilangan tartibda javobgar bo'lib hisoblanadi.

3.5. Abonentning aloqa "Qoidalar"ini qay darajada bajarayotganini yoki abonent buyurtmasiga asosan ta'mirlash uchun kelgan Operator xodimini (agar u rasmi yopishtirilgan, korxona muhri bositgan, amal qilish muddati ko'rsatilgan guvohnomaga ega bo'lsa) binoga kirishga ruxsat etish. Bunda Operator xodimida bajariladigan ishlar naryadi ham bo'lishi zarur.

3.6. Abonent uskunasidan pullik xizmat ko'rsatish uchun taksofon sifatida, Internetga kirish va hokazo maqsadlarda foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. Operator tomonidan ajratilgan telefon raqamlaridan telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish "Qoida"ga belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Ushbu band buzilgan taqdirda Operator Abonentning telekommunikatsiya tarmog'iga kirishini operator texnik komissiyasi tomonidan dalolatnoma tuzilib, kamchiliklar bartaraf etilgunga qadar to'xtatib qo'yish huquqiga ega. Abonent tomonidan mazkur holatlar takrorlanganda shartnomaga bir tomonlama bekor qilinadi.

3.7. Faqat sertifikatlangan telefon apparatlari va boshqa uskunalardan abonent uskunasi sifatida foydalanish. Muvofiqlik sertifikati bo'Imagan, telefon raqamini avtomatik aniqlash uskunasi(AON)dan foydalanmaslik.

3.8. Abonent telefonlaridan va boshqa oxirgi qurilmalaridan amalga oshirilgan mahalliy, shaharlарaro, xalqaro telefon so'zlashuvlari uchun to'lovlarini to'liq 4.3 – bandga asosan amalga oshirish.

3.9. Abonentlik qurilmasini o'zboshimchalik bilan o'rnatish va parallel telefon apparatlari yoki boshqa radio aloqasi, telematik xizmatlar va axborot uzatgichlariga ularash ta'qilqanadi. Bu qurilmalarini ularash operatorga ma'lum qilinib, muvofiqlik sertifikatiga ega bo'lgach amalga oshiriladi. Agar, Abonent tomonidan o'zboshimchalik bilan abonent liniyasiga ulangan qurilmaning ularish vaqtini aniqlash imkoniyati bo'lmasa, abonent to'lovi joriy yilning boshidan hisoblab undiriladi.

Radiotelefonlar va boshqa radioelektron vositalar (10 mVt quvvatli simsiz telefonlar bundan mustasno) abonent qurilmasi sifatida ulangan taqdirda O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish Agentligi yoki uning vakolatli organidan bu qurilmalardan foydalanishga ruxsatnomasi olinishi zarur.

3.10. Telekommunikatsiya tarmoqlari ish sifatini pasaaytirishga yoki ularni shikastlanishiga qaratilgan hatt-harakatlarga yo'l qo'yimasligi zarur.

3.11. Abonent "Qoidalar"da belgilab berilgan boshqa bir qator majburiyatlarga ham ega.

3.12. Abonent kursatilgan xizmatlar xakkini tulash uchun "Tulovchiga" xar oyda xisob-varak fakturalar nusxasini yetkazib boradi.

- 3.13. Abonent fakatgina xarajatlar smetasida aloka xizmatlari uchun 2022-yilda ajratilgan mablaglar doirasida shartnomaning 1.2 bandida kursatilgan (byudjet xisobidan) tulovni amalga oshirish majburiyatini oladi.
- 3.14. Abonent tomonidan byudjetdan mablag oluvehiga ko'rsatiladigan telefon aloqasi xizmatlariga qonunchilik asosida belgilab beriladigan Uzbekiston Respublikasida amaldagi tariflar bo'yicha haq to'lanadi.
- 3.15. Telekommunikatsiya xizmatlari uchun to'lovlari, naqd pulsiz byudjet tashkilotining xarajatlar smetasida kuzda tutilgan mablaglar doirasidan chikmagan xolda mazkur shartnomaning 1.2. bandidagi byudjet xisobidan tulanadigan katorida kursatilgan summa asosida xar chorakning uchdan bir kismi doirasida oyma -oy tulovni amalga oshiradi.

4. XIZMATLARGA HAQ TO'LASH.

- 4.1. Abonent smeta xarajati mablaglari doirasida shartnomaning 1.2 bandiga binoan joriy oy uchun oldindan 100 % tulovni xar oyning 20-sanasigacha xizmat yakini tulaydi, smetada ajratilgan mablaglardan ortikcha kursatilgan xizmat uchun byudjet tashkiloti uzining maxsus xisob-rakamidan tulashni uz zimmasiga oladi.
- 4.2. Manalliy, shaharlararo va xalqaro telefon aloqasi uchun to'lovlari:
- oldindan to'lov (bunak) yo'li bilan amalga oshiriladi.
- 4.3. Oldindan bunak tariqasidagi to'lovlari kamida 1 oy oldin, lekin 12 oydan ko'p bo'limgan muddat uchun amalga oshirilishi mumkin.
- 4.4. Telefon aloqasi xizmatlari uchun oldindan to'langan bunak summasi operatorning billing tizimi tomonidan quyidagi ketma-ketlikda taqsimlanib to'lanadi:
- abonentlik to'lovi va qo'shimcha xizmat turlari;
 - hisoblagichlar;
 - shaharlararo va xalqaro so'zlashuvlar.

Ushbu bandda ko'rsatilgan xizmatlarga tariflar oshgan taqdirda, ular bo'yicha hisob-kitoblar bunak summasi tugagunga qadar amalda bo'lgan avvalgi tariflar bo'yicha amalga oshiriladi. (Agar bu xizmatlar bo'yicha to'lovlari universali xizmatlarga tariflarning o'zgarishi to'g'risida e'lon berilishidan oldin amalga oshirilgan bo'lsa).

- 4.5. Mahalliy so'zlashuvlar (vaqtbay asosida to'lov tizimi joriy etilganda), shaharlararo va xalqaro telefon aloqasidan foydalanganligi uchun to'lov hisob varag'iiga asosan (axborot uzatish va telematik xizmatlardan foydalananligi uchun to'lovlari ham shunga kiradi), hisob varag'iida ko'rsatilgan sanadan boshlab 3 bank kuni ichida amalga oshiriladi.
- 4.2.1. Hisob-kitob qilingan oydan keyingi oyning 10-sanasigacha abonent "Operator"ning abonentlar bo'limiga ko'rsatilgan telekommunikatsiya xizmatlari uchun hisob-varaq fakturasini olish uchun kelishi kerak, ko'rsatilgan muddatda kelmagan taqdirda telefon o'rnatilgan tartibda o'chirib qo'yiladi.
- 4.2.2. Abonent xohishiga ko'ra operator shaharlararo va xalqaro so'zlashuvlar bo'yicha ma'lumot (rasshifrovka)ni elektron variant(fayl holati)da berishi mumkin.

- 4.2.3. Abonent shaharlararo va xalqaro so'zlashuvlar bo'yicha ma'lumotni takroriy so'ragan hollarda undan qo'shimcha ravishida 300 so'm, agar elektron variant(fayl holati)da bo'lsa 100 so'm (har bir kompyuter varag'i uchun) olinadi. Mazlur to'lovlari aloqa xizmatlari tariflari o'zgarganida qayta ko'rib chiqiladi.

- 4.6. Belgilangan muddatda aloqa xizmatlari to'lovlari to'lanmasa, telefon o'chirib qo'yiladi, bunda operator shartnomani bekor qilish va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga muvofiq qarzlarni undirib olish huquqiga ega.

Agar Abonent hisob-kitob davridan keyingi 2 oy davomida telekommunikatsiya xizmatlari uchun, shu jumladan, telefon o'chirib qo'yilgan vaqt uchun qarzlarini to'lamasa, Operator "Abonent" bilan kelishilgan xolda shartnomani bekor qilish va qarzlarini o'rnatilgan tartibda undirib olish huquqiga ega. Qaytadan telefon yoki boshqa oxirgi qurilmanni o'rnatish ariza berilib tegishli to'lovlari amalga oshirilgach amalga oshiriladi.

- 4.7. Agar abonent to'lanishi lozim bo'lgan pul miqdoriga, so'zlashuv vaqtini va bu so'zlashuv uning telefoniga tegishli cleanligiga norozi bo'lsa, u hisob varag'ini olgandan so'ng 30 kun davomida raddiya yozishi mumkin. 30 kundan so'ng e'tirozlar qabul qilinmaydi. Tekshiruv natijalari Abonentni qanoatlantirmasa sudga murojaat qilishi mumkin.

- 4.8. Ushbu shartnomaning 4.8-bandisi bo'yicha tekshiruv o'tkazilayotganda telefon shaharlararo va xalqaro so'zlashuvlarga chiqish kod(8)siz ishlatisib qo'yiladi.

- 4.9. Har oyning 1-chi kuni holatida debitor qarzdorlik mavjud bo'lsa, "Operator" qarzdorlik summasiniq 0,1% miqdorida to'loving har bir kechiktirilgan kuni uchun, bu qarzdorlik to'liq undirib olinguncha qadar penya hisoblaydi.

- 4.10. Abonentning aybi bilan telefon yoki boshqa oxirgi qurilma ishlamagan paytda ulardan foydalanish bo'yicha abonent to'lovlari to'liq miqdorda undirib olinadi.

- 4.11. Xalqaro va shaharlararo avtomatik telefon aloqasidan foydalananliga, to'lanishi lozim bo'lgan so'zlashuv vaqtini beraveni, raqamni aniqlaychi va hokazolar bilan so'zlashuv amalga oshirilganda to'lanishi lozim bo'lgan so'zlashuv vaqtini ana shu uskunalar ishga tushgan paytdan boshlab hisobga olinadi.

- 4.12. A. Byudjet tashkilotlar uchun 1 oylik telefon tulovi:

| | |
|-----------------------------|----------|
| - Shaxar telefonini uchun: | 1800 sum |
| - Kishloq telefonini uchun: | 1900 sum |

- 1 ta telefon Kitob shaxri ichida xar oyda 180 minutdan oshgan xar bir minut vakt uchun 4 (turt) sum miqdorida pul tulanadi.

B. Shaxarlararo suzlashuvlar uchun kuyidagicha tarif

| | |
|---------------------------|----------|
| - 100 km gacha | - 40 sum |
| - 101 km dan 300 km gacha | - 55 sum |
| - 301 km dan 600 km gacha | - 70 sum |
| - 601 km dan yukori | - 90 sum |

Mijozlarni schetida avans summasi bulmasa xar bir shaxarlararo suzlashuvlar uchun kushimcha 25 sumdan xisoblanadi.

5. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

- 5.1. Nizolarni hal etish chog'ida tomonlar o'zaro kelishuvga binoan ish tutadilar.
- 5.2. Tomonlar o'zaro kelisha olmagan hollarda, nizolar Xo'jalik sudida hal etiladi.

6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Ushbu shartnoma shartlarini tomonlar bajarmagan taqdirda ularning mas'uliyati O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolik Kodeksi", "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi, "Telekommunikatsiyalar to'g'risi"gi qonunlari, "Umumi foydalanishdagagi telekommunikatsiya tarmoqlarida telefon aloqasi xizmatlarini ko'rsatish qoidalari" va O'zbekiston Respublikasining boshqa bir qator amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq tomonlarning javobgarliklari ko'rib chiqiladi.

7. FORS-MAJOR

7.1. Tomonlarning xohish-istagiga mutlaqo bog'liq bo'lмаган hollarda (tabiiy ofatlar, noqulay ob-havo sharoitlari, hukumat chora-tadbirlari, hokimiyyat idoralari qarorlari, harbiy to'qnashuvlar, ichki tartibsizliklar va boshqa holatlarda) tomonlarning o'z majburiyatlarini bajarmasliklari ushbu shartnomani ijro etish buzilgan deb hisoblanmaydi, tomonlarning shartnomani bajarish muddatlari yuqorida ko'rsatib o'tilgan holatlar bartaraf etib bo'lingunga qadar keyinga suriladi.

7.2. Fors-major holatlariga tayanib ish ko'ruchchi tomon vakolatli davlat organining tasdiqlangan tegishli hujjatini taqdim etishi kerak.

8. SHARTNOMAGA O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH

8.1. Shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tomonlarning roziligiga ko'ra qo'shimcha Bitimni rasmiylashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi Bitim u yozma shaklda bo'lgandagina va tomonlar uni imzolaganlaridagina haqqoniydir. Tomonlarning shartnoma shartlariga kiritgan qo'shimcha va o'zgartirishlari uning ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi, ular albatta inobatga olinishi zarur.

8.2. Shartnoma qonunchilik o'zgarganda, "Qoidalar"da va O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlarida belgilab berilgan boshqa hollarda qayta tuzilishi yoki o'zgartirilishi mumkin.

9. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

9.1. Ushbu shartnoma tuman Gaznachilik tomonidan ruyxatga olingen kundan boshlab kuchga kiradi va 2022-yil 31-dekabrgacha amalda bo'ladi.

9.2. Shartnoma muddatidan oldin quyidagi hollarda bekor qilinishi mumkin:

- tomonlarning kelishuviga muvofiq;
- tomonlardan biri shartnoma shartlarini bajarmagan taqdirda;

O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida belgilangan boshqa hollarda.

9.3. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, bir xil yuridik kuchga ega bo'lib hisoblanadi va tomonlarning har biri uchun bir nusxdan beriladi.

10. TOMONLAR REKVIZITI

«Operator»

Kitob Telekom boglamasi
(ijrochining nomi)
Manzili : B.Ipak yuli 3 uy
tel\faks: 54-25-360
x\r: 20210000204074838386

bank nomi : Qarshi Aloqabank
MFO : 00401 INN : 203366731
IFUT : 60100



X.M.Diyorov
F.I.Sh

«Abonent»

Kitob tuman SEO va JS bo'limi
(byudjet mablaglarini oluvchi nomi)
manzili : Kitob tuman B.Ipak yo'li ko'cha
tel\faks : 919495574
sh.x.r: 100022860102327074110054001
INN : 200693938 IFUT : 86900

O'z.Res.Moliya Vazirligi G'aznachiligi
x\r : 23402000300100001010

bank nomi : Toshkent Markaziy bank XKKM
MFO :00014 INN :201122919



Raxbar

S.T.Ibatov.
F.I.Sh

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIغا MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA**

1.Loyihaning turi: Shartnoma

2.Loyihaning nomi: Kitob tuman Telekkomunikatsiya, bog'lamasi va Sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatlik xizmatining Qashqadaryo viloyati Kitob tuman bo'limi o'rtaida Yuridik shaxslar va yuridik shaxs maqomiga ega bo'limgan xususiy tadbirdorlarga telefon aloqasi xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha shartnoma tuzish haqida

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ма'lumot: Sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati kadrlar bo'limi tomonidan ishlab chiqilgan va markazga huquqiy ekspertizadan otkazish-uchun 25.01.2022-yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti



N.Ne'matova

27.01.2022